



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 173 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	



KO'CHMAS MULKNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI



Mirdjalilova Dildora Shuxratovna

Toshkent arxitektura – qurilish universiteti dotsenti, PhD
ORCID: 0000-0002-7993-6009

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholash masalalari tahlil qilingan. Turli uslubiy yondashuvlar - moliyaviy tahlil, investitsion baholash, bozor muhiti tahlili va boshqaruv jarayonlarini baholash metodlari qiyosiy tahlili, har bir yondashuvning afzallik va cheklovlari ochib berilgan hamda integral baholash modeli taklif etilgan. Samarali boshqaruv ko'chmas mulkning qiymatini oshirish va daromadlarini maksimal darajada ta'minlashga qaratilgan. Ko'chmas mulkni boshqarishni takomillashtirish va optimallashtirish muammosiga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilinib, ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning turli usullari tahlil qilingan va ularning amaliy qo'llanilishi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: ko'chmas mulk, ko'chmas mulkni boshqarish, samaradorlik, mulkni boshqarish, boshqaruv samaradorligi, moliyaviy tahlil, investitsiya baholash, bozor tahlili, indikativ baholash, integral yondashuv, ROI, NPV, boshqaruv tizimi, ijara daromadi, avtomatlashtirish.

Abstract: This article analyzes the issues of assessing the effectiveness of real estate management. Various methodological approaches – financial analysis, investment assessment, market environment analysis and comparative analysis of management process assessment methods, advantages and limitations of each approach are revealed, and an integrated assessment model is proposed. Effective management is aimed at increasing the value of real estate and maximizing its income. Theoretical approaches to the problem of improving and optimizing real estate management are analyzed, various methods for assessing the effectiveness of real estate management are analyzed, and their practical application is highlighted.

Key words: real estate, real estate management, efficiency, property management, management efficiency, financial analysis, investment assessment, market analysis, indicative assessment, integrated approach, ROI, NPV, management system, rental income, automation.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы оценки эффективности управления недвижимостью. Проведен сравнительный анализ различных методологических подходов - финансового анализа, инвестиционной оценки, анализа рыночной среды и методов оценки процессов управления, выявлены преимущества и ограничения каждого подхода, а также предложена модель комплексной оценки. Эффективное управление направлено на повышение стоимости недвижимости и максимизацию ее доходов. Анализируются теоретические подходы к проблеме совершенствования и оптимизации управления недвижимостью, анализируются различные методы оценки эффективности управления недвижимостью и освещается их практическое применение.

Ключевые слова: недвижимость, управление недвижимостью, эффективность, управление недвижимостью, эффективность управления, финансовый анализ, Инвестиционная оценка, анализ рынка, ориентировочная оценка, комплексный подход, ROI, NPV, система управления, доход от аренды, автоматизация.



KIRISH

Ko'chmas mulk iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o'rin egallaydigan real aktivlardan biri hisoblanadi. Ushbu turdagi mulk nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki investitsiya faoliyatini amalga oshirish, kapitalni saqlash va ko'paytirish, uzoq muddatli daromad manbaini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, uning boshqaruvi takomillashtirish va samaradorligini baholash zamonaviy iqtisodiy tizimlarda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ko'chmas mulk obyektlaridan foydalanishda yuqori samaradorlikka erishish uchun tizimli boshqaruv, standartlashtirilgan baholash mezonlari va zamonaviy tahlil usullari joriy qilingan. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida ko'chmas mulkni boshqarish jarayonida moliyaviy tahlil, aktivlarning bozordagi pozitsiyasi, ekologik barqarorlik va ijtimoiy foydalilik kabi ko'rsatkichlar integratsiya qilingan holda baholanadi. Bu esa boshqaruvda strategik yondashuvlarni shakllantirish va risklarni kamaytirish imkonini beradi.

O'zbekistonda ham ko'chmas mulk sohasi so'nggi yillarda faol rivojlanmoqda. Davlat tomonidan sohaga oid qator qonunchilik hujjatlari qabul qilindi, elektron kadastr tizimi joriy etildi, xususiy mulk huquqi kafolatlari mustahkamlandi. Biroq, ko'chmas mulk obyektlarini boshqarishda samaradorlikni baholash borasida yagona uslubiy yondashuvlar va standartlashtirilgan tahlil mexanizmlarining yetishmasligi amaliyotda qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, ko'chmas mulkdan foydalanish darajasi, daromadlilik, ekspluatatsiya xarajatlari, ijara munosabatlari samaradorligi va boshqa ko'rsatkichlar har doim ham to'liq tahlil qilinmaydi.

Shuningdek, ko'p hollarda baholashda sub'ektiv yondashuvlar ustuvor bo'lib, aniq hisob-kitoblarga emas, balki tajriba yoki taxminiy ma'lumotlarga tayanish holatlari kuzatiladi. Bu esa boshqaruv jarayonida noto'g'ri qarorlarning qabul qilinishiga, resurslardan samarasiz foydalanishga, investitsiyaviy jozibadorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholash masalasi bugungi kunning eng dolzarb ilmiy va amaliy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Buning sababi - ko'chmas mulk faqat mulkiy aktiv emas, balki iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi, investitsiyalarni jalb qiluvchi va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi strategik resurs hisoblanadi. Shu sababli uning boshqaruvida aniq mezonlarga asoslangan samaradorlik bahosi tizimini ishlab chiqish talab etiladi.

Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkni qo'llab-quvvatlash, davlat mulkini optimallashtirish, yer va mulkka oid ma'lumotlarni raqamlashtirish, ko'chmas mulk bozorini liberallashtirish kabi jarayonlar ushbu sohaning ahamiyatini yanada oshirdi. Bozor munosabatlarining chuqurlashishi va raqobat muhitining kuchayishi fonida ko'chmas mulk obyektlarini samarali boshqarish masalasi faqatgina shaxsiy foydani emas, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ham belgilaydigan omilga aylanmoqda.

Shu bilan birga, ko'chmas mulk bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda ko'p hollarda baholash va tahlil mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmagani kuzatilmoqda. Ijara bozorida, tijorat binolarini boshqarishda yoki davlat mulkidan samarali foydalanishda strategik yondashuvlar yetishmaydi. Bunday hollarda notekis rivojlanish, resurslarni samarasiz taqsimlash, xato investitsiya qarorlari va aktivlarning yetarlicha foydalanilmasligi kabi muammolar yuzaga keladi. Bu esa mamlakat iqtisodiy salohiyatining to'liq ro'yobga chiqmasligiga sabab bo'ladi.

Xalqaro amaliyotda ko'chmas mulk obyektlarini baholash va boshqarish uchun keng ko'lamli metodologiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular ko'p hollarda iqtisodiy, moliyaviy, ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlarni kompleks baholashni nazarda tutadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda boshqaruv samaradorligi moliyaviy qaytarim darajasi, ijara stavkalari, foydalanish koeffitsienti, energetik samaradorlik va xatto foydalanuvchilar qoniqish darajasi orqali baholanadi. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston sharoitiga moslashtirilishi, milliy model ishlab chiqilishi talab etilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashga oid ilmiy yondashuvlarni shakllantirish, ularni milliy amaliyotga joriy etish va bu orqali boshqaruv sifatini oshirish nafaqat amaliy ahamiyatga, balki katta strategik qiymatga ega. Bu jarayonda metodik yondashuvlarni tahlil qilish, ularning natijadorligini baholash va samarali modellar asosida takliflar ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Ko'chmas mulkni boshqarish metodologiyasi bu ijtimoiy-iqtisodiy tizimning murakkab va dinamik jarayoni bo'lib, unda turli xil yondashuvlar, usullar va strategiyalar ishlatilmoqda. Ushbu metodologiya ko'chmas mulkning samarali boshqarilishi va uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini oshirishga qaratilgan.

Ko'chmas mulkni boshqarishdagi asosiy prinsiplardan biri – murakkablik va aniqlikdir. Bu prinsipga asoslanib, ko'chmas mulk obyektlarini boshqarishda iqtisodiy va huquqiy jihatlar, ijtimoiy faktorlar, ekologik omillar va texnologiyalar hisobga olinishi kerak. Ko'chmas mulkni boshqarishning samaradorligi ushbu turli omillarning o'zaro aloqadorligini tahlil qilishga bog'liq. Har bir mulk obyektining xususiyatlari, joylashuvi va



ishlatish maqsadi boshqaruvni samarali amalga oshirish uchun aniq va mukammal modellarni ishlab chiqishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'chmas mulkni boshqarishda iqtisodiy samaradorlik eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Harvey ko'chmas mulkni boshqarishda iqtisodiy boshqaruv, ijaradan olingan daromad va sarflar o'rtasidagi aloqani diqqat bilan o'rganadi [1]. Uning fikricha, boshqarishning samaradorligi o'z-o'zini ishlash, xizmatlardan foydalanish va bozor holatlari bilan o'zgaruvchan narxlarni to'g'ri baholashga bog'liq. Harvey iqtisodiy samaradorlikni baho qilishda amaldagi moliyaviy ko'rsatkichlarni olib, investitsiyaning qaytishini (ROI) hisoblashni taklif qiladi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, aqlli uy tizimlari, raqamli boshqaruv tizimlari (masalan, ERP yoki CRM) ko'chmas mulkni boshqarishda samaradorlikni oshirishga katta hissa qo'shadi.

Parker va Collins o'z tadqiqotlarida aqlli texnologiyalarning ahamiyatini va ularning ko'chmas mulkni boshqarishdagi rolini ta'kidlaydilar [2]. Ular ko'chmas mulkni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va oqilona texnologiyalar yordamida, masalan, binolarni energiya tejovchi qilishni o'rganadilar. Ularning ishlariga ko'ra, aqlli qurilmalar yordamida mulkni boshqarish, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Ko'chmas mulkni boshqarishda ekologik jihatlarni hisobga olish nafaqat atrof-muhitga, balki iqtisodiy foydalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jones va Thomas o'z ishlarida ekologik jihatlarni ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydilar [3]. Ularning fikriga ko'ra, ekologik barqarorlikni saqlash uchun mulkni boshqarishda energiya samaradorligi, yashil qurilish va resurslardan tejamkor foydalanish zarur. Shuningdek, ular «yashil» sertifikatlar (LEED, BREEAM kabi) ko'chmas mulkni boshqarishda ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini aytadilar. Ko'chmas mulkdan samarali foydalanishning yana bir muhim omili bu ijtimoiy jihatlarni hisobga olishdir.

Walker o'z tadqiqotida [4] ko'chmas mulkni boshqarishda ijtimoiy va jamiyat bilan bog'liq omillarni ko'rib chiqadi. U ko'chmas mulkning ijtimoiy qiymatini, ya'ni uning aholiga va jamoaga ta'sirini baholashda asosiy e'tiborni tashkiliy va makon infrastrukturasi omillariga qaratadi. Walker, shuningdek, ko'chmas mulkning atrofidagi makonning rivojlanishi, masalan, transport tizimi, maktablar, sog'liqni saqlash inshootlari va boshqa infratuzilma obektlari ko'chmas mulkning uzoq muddatli qiymatini oshiradi.

Smith o'z ishlarida [5] ko'chmas mulk bozorining o'zgaruvchan sharoitlarini tahlil qilishda, yangi investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishda muhim element sifatida ko'rsatadi. Ular mulkni boshqarishning samarali strategiyasini yaratishda bozor talabi, narxlar va raqobatbardoshlikni hisobga olishni zarur deb hisoblaydilar. Smith, shuningdek, bozorning turli jihatlarni tushunish orqali ko'chmas mulkning samarali boshqarilishini va kelajakdagi foydalanuvchilar ehtiyojlarini qondirishni muhim deb hisoblaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlarini tizimli va statistik tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, grafik talqin, taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'chmas mulkdan samarali foydalanishni baholashning eng keng tarqalgan usuli - rentabellikni (ROI) hisoblash. Bu yondashuvda mulkdan olingan daromadlar va unga sarflangan xarajatlar o'rtasidagi nisbatni tahlil qilish muhimdir. Rentabellikni hisoblash, ko'chmas mulk egalari va investorlariga mulkning iqtisodiy samaradorligini tushunishda yordam beradi.

Ko'chmas mulk obyektlari, shuningdek, yer uchastkalari va kapital qurilish loyihalarini o'z ichiga olgan yer-mulk majmuasi hisoblanadi.

T.I.Xametovanning fikricha, ko'chmas mulkni yer-mulk kompleksi sifatida samarali boshqarish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak:

- 1) yerdan eng samarali foydalanishni tahlil qilish asosida ko'chmas mulkdan samarali foydalanish;
- 2) yer va mulkiy kompleks obyektlari faoliyatining huquqiy rejimini tanlash, ularni baholash, shu jumladan ko'chmas mulkning investitsion jozibadorligini baholash orqali yer uchun to'lovlarni optimallashtirish;
- 3) yer-mulk kompleksi obyektlarining o'zaro ta'sirini optimallashtirishni hisobga olgan holda yer resurslaridan foydalanishni prognozlash [6].

B.Xammning fikricha, shaharning ko'chmas mulkni boshqarish strategiyasi ish o'rinlarini ko'paytirishga, fuqarolarning ta'lim darajasi va hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi [7].

P.E. Bryunovanning so'zlariga ko'ra, binoning holati to'g'risida o'z vaqtida ma'lumot statistik, texnik, buxgalteriya, soliq va boshqaruv hisobi yordamida olingan mulkni boshqarish tizimida reproduktiv faoliyatni rejalashtirish uchun zarurdir. Biroq, yuqorida ko'rsatilgan buxgalteriya hisobining hech birida, almashtirish



qiymatini hisoblashda, turar-joy binosini allaqachon amalga oshirilgan kapital ta'mirlash hisobga olinmaydi. Binolarning eskirishini kamaytirish bo'yicha restavratsiya tadbirlarini amalga oshirish samaradorligi ijtimoiy samarani olishning eng muhim omilidir [9].

Boshqaruv qarorlari samaradorligini baholashning yuqoridagi metodologiyasini sinovdan o'tkazish natijalariga ko'ra quyidagi tavsiyalar berildi: baholashni amalga oshirish uchun tegishli huquqiy bazani ta'minlovchi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani tahlil qilish; moliyaviy qo'llab-quvvatlash, dastur tadbirlarini amalga oshirish uchun kadrlar bilan ta'minlash, axborot bilan ta'minlash, aniq muddatlar, harakatlarni bajarish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish tizimlarini ishlab chiqish [10].

Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholash ko'p qirrali yondashuvlarni talab qiladi. Bu jarayonni to'liq qamrab olish uchun turli usullar – moliyaviy tahlil, investitsiya baholash, bozor holati tahlili, boshqaruv jarayonlarini baholash va ularning integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Har bir uslubiy yondashuv o'zining muayyan afzalliklari va cheklovlariga ega bo'lib, ularni aniq misollar va tahlillar asosida qiyosiy ko'rinishda tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1. Moliyaviy tahlil – daromad va xarajatlar o'rtasidagi munosabat. Moliyaviy tahlilning asosini ko'chmas mulk obyektlarining pul oqimlari va rentabellik darajasi tashkil etadi. Bunda asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- ijaradan daromad – mulkdan foydalanish orqali qancha pul kelganini ko'rsatadi.
- operatsion xarajatlar – elektr energiyasi, xizmat ko'rsatish, ta'mir va boshqa sarflar.
- ROI (Return on Investment) – investitsiyaning foydalilik darajasini aniqlaydi.

2. Investitsiya samaradorligini baholash – NPV va IRR asosida. NPV (Net Present Value) va IRR (Internal Rate of Return) ko'rsatkichlari ko'p yillik investitsiya loyihalarida samaradorlikni aniqlashda keng qo'llaniladi. Bunda mulkning kelajakdagi daromdlari hozirgi qiymatga keltiriladi.

$$NPV = \sum (Cf_t / (1+r)^t) - I$$

bunda: Cf_t – t davridagi pul oqimi, r – diskont stavkasi, I – investitsiya sarfi.

3. Bozor yondashuvi – talab, taklif va raqobat muhitini tahlil qilish. Ko'chmas mulkni baholashda bozor holatini inobatga olish – uning real qiymatini va foyda keltirish salohiyatini belgilashda muhim hisoblanadi. Bunda quyidagi omillar tahlil etiladi: o'xshash obyektlar narxi; joylashuv darajasi (A, V, S toifalari); raqobatchilik va ijarachi segmenti; bo'sh turgan maydonlar ulushi.

4. Indikativ (boshqaruv) tahlil – ichki jarayonlarni baholash. Moliyaviy ko'rsatkichlardan tashqari, boshqaruv jarayonining tashkil etilishi ham muhimdir. Bu baholashda quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinadi: boshqaruv xarajatlari (reja/amaldagi); ijarachilar bilan shartnomalar soni va davomiyligi; texnik xizmat ko'rsatish jadalligi; CRM yoki boshqa avtomatlashtirilgan tizimlar mavjudligi.

5. Integral yondashuv – kompleks baholash modeli. Yuqoridagi uslublar alohida holda cheklangan ma'lumot beradi. Shuning uchun integral yondashuv qo'llash - barcha omillarni hisobga olgan holda samaradorlikni baholashning maqbul yo'li hisoblanadi.

Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning afzallik va kamchiliklari jadval asosida yoritildi (1-jadval).

1-jadval. Baholash uslublarining qiyosiy tahlili.

Uslubiy yondashuvlar	Afzalliklari	Kamchiliklari	Amaliy qo'llanilishi
Moliyaviy tahlil	Aniq hisob-kitob, investor uchun tushunarli, tez natija beradi	Uzoq muddatli omillarni hisobga olmaydi	Ijara obyektlari, tijorat ko'chmas mulki
NPV/IRR tahlili	Loyihaning iqtisodiy manfaatdorligini aniqlaydi	Xususiy ma'lumotlarga muhtoj, baholash sub'ektiv bo'lishi mumkin	Yangi investitsiya loyihalari
Bozor yondashuvi	Raqobat muhitini inobatga oladi	Bozor ma'lumotlari har doim ham mavjud emas	Sotish/ijara strategiyalari
Indikativ (boshqaruv) tahlili	Joriy boshqaruv holatini baholaydi	Ko'pincha subyektiv baholanadi, aniq ko'rsatkichlarga ehtiyoj bor	Xizmat ko'rsatish darajasi bahosi
Integral yondashuv	Kompleks baholash, turli omillarni o'zaro bog'laydi	Hisob-kitob murakkab, ma'lumotlar bazasi talab etiladi	katta obyektlar boshqaruvi, strategik qarorlar

Yuqoridagi kengaytirilgan tahlildan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Ko'chmas mulkni samarali boshqarish uchun bir yoki ikki uslub bilan cheklanish kamlik qiladi. Tizimli, integral yondashuv talab etiladi.



Moliyaviy natijalar boshqaruv samaradorligining oqibatidir, sabab emas. Shuning uchun boshqaruv jarayonlari to'g'ri tashkil etilishi kerak.

Bozor tahlili orqali strategiya aniqlanadi, NPV/IRR tahlili orqali loyihaga kirishish yoki yo'qligiga qaror beriladi, indikativ tahlil orqali ichidagi tizim samaradorligi aniqlanadi.

Avtomatlashtirilgan tahlil vositalarini joriy etish orqali xolis va tezkor baholash mumkin bo'ladi (2-jadval).

2-jadval. Ko'chmas mulk boshqaruvi samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.

Omillar	Ahamiyat darajasi (1–5)	Izoh
Lokalizatsiya (joylashuv)	5	Bozor narxiga bevosita ta'sir qiladi
Texnik holat	4	Remont xarajatlari va ijara bahosi bilan bog'liq
Bozor sharoiti	4	Ijara talab va taklifiga ta'sir qiladi
Boshqaruv jadalligi va tizimi	5	Ijarachilarni jalb qilish, xarajatni optimallashtirish uchun muhim
Avtomatlashtirish darajasi	5	Hisobot, monitoring, xavfni kamaytirishda foyda beradi

Jadvallar tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ularni integral yondashuv orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq. Faqat moliyaviy yoki bozor tahlili bilan cheklanish yetarli emas. Ijara munosabatlarini isloh qilish, texnik xizmatni yaxshilash va raqamlashtirish vositalari boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko'chmas mulkni boshqarishda, avvalambor aniqlik va murakkablikka e'tibor qaratiladi. Boshqaruvning samaradorligi aniq rejalar va siyosatlariga bog'liq. Mazkur jarayonda asosiy yondashuvlardan biri, multidissiplinarlik (huquq, iqtisod, ijtimoiy fanlar) prinsipi hisoblanadi. Ko'chmas mulkni boshqarish metodologiyasi – bu ko'p qirrali va murakkab jarayon bo'lib, uning samaradorligi asosan iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy va texnologik omillarni hisobga olishga bog'liq. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar ko'chmas mulkni boshqarishda yangi va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega. Iqtisodiy samaradorlik, ekologik va texnologik imkoniyatlar, shuningdek, bozor va ijtimoiy omillarni hisobga olish ko'chmas mulkni boshqarishning muvaffaqiyatini belgilaydi. Ko'chmas mulkdan samarali foydalanishni baholashda yuqoridagi uslubiy yondashuvlar bir-birini to'ldiradi va barcha omillarni hisobga olishni talab qiladi. Iqtisodiy va ekologik parametrlar, bozor sharoitlari, ijtimoiy ta'sirlar va texnologiyalar ko'chmas mulkni boshqarishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Ularning har biri, o'z navbatida, mulkning uzoq muddatli qiymatini va foydaliligini oshirishga yordam beradi.

Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholash murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u faqat iqtisodiy yoki moliyaviy ko'rsatkichlar bilan chegaralanmaydi. Mazkur maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, samarali boshqaruv - ko'chmas mulk obyektlarining iqtisodiy salohiyatini to'liq ochish, investitsion jozibadorligini oshirish va bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Keltirilgan uslubiy yondashuvlarning tahlili asosida quyidagi keng qamrovli xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Ko'p parametrlil baholash zaruriyati. Boshqaruv samaradorligini xolis va haqqoniy baholash faqat bitta ko'rsatkichga tayanib emas, balki kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Buning uchun moliyaviy, bozor, investitsion va boshqaruv ko'rsatkichlarini bir-biri bilan uyg'unlashtirib tahlil qilish talab etiladi. Bunda har bir uslub o'z o'rnini va funksiyasiga ega bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

2. Moliyaviy tahlil – asosiy, lekin cheklangan manba. Ijara daromadi, kesh-flou va ROI kabi ko'rsatkichlar boshqaruv samaradorligini baholashda muhim o'rin tutadi. Lekin ular obyektning umumiy faoliyatini emas, faqat natijalarini aks ettiradi. Agar ushbu natijalar ortida qanday boshqaruv tizimi turgani tahlil etilmasa, xolis xulosaga kelish qiyin.

3. Bozor tahlili – tashqi muhit bilan bog'liq omillarni aniqlovchi vosita. Obyektning joylashuvi, bozordagi talab va taklif muvozanati, raqobatchi mulklar bilan taqqoslash asosida bozordagi pozitsiya baholanadi. Bu ko'rsatkichlar boshqaruv strategiyasini tanlashda, narx siyosatini shakllantirishda va investitsiyaviy qarorlar qabul qilishda asosiy rol o'ynaydi.

4. Indikativ tahlil – boshqaruv jarayonlarining sifatini ko'rsatuvchi ko'zgudir. Boshqaruv xarajatlari, xizmat ko'rsatish tizimi, ijarachi bilan munosabatlar, avtomatlashtirish darajasi kabi ko'rsatkichlar boshqaruv samaradorligining ichki salohiyatini baholashga imkon beradi. Bu, ayniqsa, ko'p qavatli biznes markazlari, ko'p funktsionalliy obyektlar va logistika markazlarida alohida ahamiyat kasb etadi.



5. Integral yondashuv – mukammal baholash modeli. Alohida usullardan foydalanish qisman natija beradi, lekin ularni birgalikda qo'llash - har tomonlama xolis va aniq baholash imkonini yaratadi. Integral yondashuv raqamli vositalar (GIS, CRM, Big Data tahlillari) asosida tashkil etilganda, inson faktori kamayib, qaror qabul qilish samaradorligi ortishi mumkin.

Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi amaliy chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish – ijara shartnomalari, xizmat ko'rsatish, texnik nazorat va moliyaviy hisobotlar yuritishda axborot texnologiyalari samaradorlikni oshiradi.

pul oqimlari va xarajatlarni muntazam tahlil qilib borish – xarajatlarni optimallashtirish orqali foydani ko'paytirish imkoni yaratiladi.

bozor tahlilini doimiy ravishda yuritish – raqobat muhitini kuzatib borish va bozor tendensiyalariga mos strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

ijara munosabatlarini sifat jihatidan yaxshilash – ijarachilarga qulay shart-sharoit yaratish, shaffof shartnomalar tizimi va tezkor muloqot platforma (mobil ilovalar orqali) orqali barqaror daromad manbaini saqlash mumkin.

mutasaddi tashkilotlar tomonidan baholash standartlarini ishlab chiqish – boshqaruv kompaniyalari va davlat muassasalari uchun yagona baholash mezonlari belgilash orqali nazorat va tahlil samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Harvey, D. *Investment Return on Property Management*. Journal of Property Economics, (2016). 45(2), 65-79.
2. Parker, L., & Collins, M. *Smart Technologies in Property Management*. Journal of Real Estate Technology, (2021). 32(1), 44-57.
3. Jones, R., & Thomas, E. *Green Property Management: Environmental Approaches to Real Estate*. Environmental Economics Review, (2020). 48(4), 112-129.
4. Walker, D. *Social Impacts of Property Management: A Review of the Literature*. International Journal of Urban Development, (2019). 22(3), 134-145.
5. Smith, J. *Market Analysis and Strategy in Property Management*. Real Estate Strategies Journal, (2018). 39(2), 22-35.
6. Хаметов, Т.И. Эффективность управления земельно-имущественным комплексом на различных территориальных уровнях. Теория, методика и практика (на примере Приволжского федерального округа): автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук / Т.И.Хаметов. – Москва, 2009. – 47 с.
7. Гринчел, Б.М. Экономические стратегии активных городов: монография / Б. М. Гринчел, К. Шуссманн, Н. Е. Костылева. – Санкт-Петербург: Наука, 2002. – 499 с. – ISBN 5-02-028532-3.
8. Иванова, А.В. Совершенствование методов управления недвижимостью: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук / А. В. Иванова. – Москва, 2007. – 24 с.
9. Брунов, П.Е. Экономические аспекты отсечки износа зданий в системе управления недвижимостью: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук / П.Е.Брунов. – Москва, 2004. – 20 с.
10. Круталевич, М.Г. Эффективность управленческих решений в региональной социально-экономической системе: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук / М. Г. Круталевич. – Оренбург, 2005. – 18 с.
11. Куколев, А.Ю. Управление недвижимостью крупного города на основе отсечочных технологий (на примере Челябинска): автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук / А. Ю. Куколев. – Санкт-Петербург, 2004. – 18 с.
12. Дроздов, Г.Д. Управление эффективностью городского жилищного строительства в конкурентной среде: автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук / Г. Д. Дроздов. – Санкт-Петербург, 2002. – 36 с.
13. Морозов, А.А. Отсечка эффективности управления инвестиционно-строительными проектами с использованием метода нейросетевой оптимизации: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук / А. А. Морозов. – Москва, 2010. – 25 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
